

DOI: 10.5281/zenodo.15695543

Link: <https://zenodo.org/records/15695543>

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shaxidova Dilafruz Muxtarovna

Namangan Davlat Texnika Universiteti

"Iqtisodiyot kafedrasи katta o'qituvchisi"

dil.muxtarovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes iqtisodiyotning poydevori sisatida yangi ish o'rinarini yaratish, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengayib, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy va institutsional yordamning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, davlat qo'llab-quvvatlash, kreditlar, konsalting xizmatlari, davlat xaridlari, iqtisodiy islohotlar

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes iqtisodiyotning poydevori bo'lib, yangi ish o'rinarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga oid asosiy qonuniy asoslar quyidagi hujjatlar orqali belgilanadi. Bunda "**Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida**"gi **Qonun** tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomini belgilaydi.

"Biznes yuritish" reytingini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi esa tadbirkorlik subyektlarini tartibga solish, ro'yxatga olish va soliq sohalarini soddalashtirishga qaratilgan. Bu hujjatlar kichik biznes subyektlariga beriladigan imtiyozlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, byurokratik to'siqlarni kamaytirish bo'yicha asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

G'ulomov S., G'aniev S., Ortiqxo'jayev Sh. "Tadbirkorlik asoslari" qollanmasida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilgan. Ushbu mexanizmlar davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan siyosat va chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Qollanmada davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari va usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ularning samaradorligini oshirish yo'llari muhokama qilingan.

Mahkamova D.M. (2021) maqolasida kichik biznes subyektlarining faoliyatini raqamlı texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada raqamlı texnologiyalarni joriy etish orqali kichik biznesning samaradorligini oshirish, yangi bozorlarni egallash va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Saypullayev, I.(2023) kichik biznesda innovatsion faoliyatni boshqarish masalalarini o'rgangan. Maqolada innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, ularni

boshqarish va kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlangan. Shuningdek, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va ularni takomillashtirish yo'llari muhokama qilingan.

Raximova,D.N.,&Alimbayev,M.M.(2014) kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalarini o'rgangan. Maqolada kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning bugungi kundagi holati, uning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli va moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Yuqoridagi tahlil qilingan adabiyotlar kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatini o'rghanadi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni boshqarish va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznesni rivojlantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish orqali davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjud holatini o'rganishda tahliliy metodlardan foydalanish. **Solishtirma tahlil usuli** orqali O'zbekiston va bir qator xorijiy davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'zaro taqqoslanib, ularning samarador jihatlarini aniqlashtirish.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini baholash bo'yicha yangi yondashuv ishlab chiqish bo'yicha solishtirma metodlardan foydalanib kichik biznes subyektlarini rivojlantirish. Masalan O'zbekistonda har bir hudud ixtisoslashuviga ko'ra kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati so'nggi yillarda sezilarli darajada takomillashdi. Xususan, 2023–2026 yillarga mo'ljallangan "Kichik biznesni uzluqsiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar kichik tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Dastur doirasida kichik biznes subyektlariga 100 million so'mga qadar garovsiz kreditlar, 150 million so'mga qadar garov talabi 50%ga pasaytirilgan kreditlar, 1,5 milliard so'mga qadar kreditlar va lizing xizmatlari taqdim etilmoqda. Yuqori texnologik startap loyihalariga 2 milliard so'mga qadar grantlar ajratildi. 2024 yil 1 noyabrdan boshlab, 100 million so'mga qadar garovsiz mikrokreditlar taqdim etilmoqda. Bu orqali kichik biznes subyektlariga moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati oshmoqda. Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foiz yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha bo'lган kreditlar ajratilmoqda. Bu kichik biznes subyektlariga arzon moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatini yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan Soliq yengilliklari, kredit imtiyozlari, subsidiya va grantlar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Yagona darcha markazlari orqali tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirilgan. Bundan tashqari” Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash” dasturi doirasida reglamentlar qisqartirildi. Tijorat banklari orqali kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish ko‘lamlari kengaytirilmoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 50% dan oshdi, band bo‘lgan aholining 76% dan ortig‘i aynan ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi baholashda empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki. Davlat tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar barcha hududlarda teng taqsimlanmayapti. Aholi soni yuqori bo‘lgan ayrim viloyatlarda tadbirkorlar moliyalashtirishda muammolarga duch kelmoqda. Soliq yengilliklari ayrim kichik korxonalar tomonidan suiste’mol qilinmoqda, bu esa nazorat mexanizmlarini kuchaytirishni talab qiladi. Ko‘plab tadbirkorlar davlat dasturlari haqida yetarli ma’lumotga ega emas. Bu axborot tarqatish va konsultatsion xizmatlar tizimining sustligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribalar Germaniya, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi **tahlili orqali** quyidagilar aniqlandi: Germaniyada kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga alohida e’tibor beriladi (xususan, texnologik startaplar uchun grantlar). Koreyada esa biznes inkubatorlari va texnoparklar tarmog‘i juda rivojlangan bo‘lib, yosh tadbirkorlar uchun amaliy ko‘mak keng yo‘lga qo‘yilgan.

Turkiyada esa kichik biznesning eksport salohiyati oshirilishiga katta resurslar yo‘naltiriladi, xususan, kichik korxonalar xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etishi uchun subsidiya ajratiladi. Bu tajriba asosida O‘zbekistonda kichik biznesni raqamlashtirish, innovatsion loyihalarga yo‘naltirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirish zarurligi aniqlashtirildi.

Davlat tomonidan grantlar asosida innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so‘mgacha grant mablag‘lari ajratilmoqda. Bu esa yangi texnologiyalarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. **Biznesni rivojlantirish markazlari** tarafidan "Kichik biznesga ko‘maklashish markazlari" tashkil etilib, tadbirkorlarga biznesni boshlash va rivojlantirish bo‘yicha maslahatlar berilmoqda. Bu markazlar orqali tadbirkorlar o‘z bizneslarini muvaffaqiyatli boshlashlari uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallashadi.

Onlayn platformalar orqali tadbirkorlar uchun onlayn ariza topshirish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Bu jarayonlarni soddalashtiradi va vaqtini tejaydi.

Banklar hududlarda 14 ta kichik biznesga ko‘maklashish markazini tashkil etib, tadbirkorlarga biznes loyihalarini ishlab chiqishda, buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini taqdim etmoqda. Bu orqali “uzluksiz xizmatlar zanjiri” yaratilgan

2017-yildan boshlab tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatidagi tekshiruvlar bekor qilindi. 2018-yildan boshlab rejali va nazorat tartibidagi tekshiruvlar bekor qilindi va tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida qonun buzilishi haqidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda "xavfni tahlil etish" tizimi asosida tekshiruvlar o'tkazish tartibi belgilandi

2025-yilda kichik biznes ishtirokida 200 ta startap loyihalari moliyalashtirilishi rejalashtirilgan. Venchur fondlar ishtirokida 145 million dollarlik 53 ta startap loyiha amalga oshirilgan

Akkreditatsiyadan o'tgan kichik biznes sub'ektlarining umumiyligi 2014-yilning shu davri bilan taqqoslaganda 2,6 barobar oshib, qariyb 35,6 ming sub'ektni yoki davlat xaridlari ishtirokchilarining 98,2 foizini tashkil etdi. Elektron savdolar orqali amalga oshirilgan davlat xaridlari umumiyligi hajmining 99,5 foizdan ortig'i kichik biznes sub'ektlaridan sotib olindi.

Moliyaviy resurslarning kengayishi, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, yangi ish o'rirlari yaratish va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali kichik biznesning rivojlanishiga katta hissa qo'shilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'zbekiston Respublikasi kichik biznesni rivojlantirishda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2025-yilda 120 trillion so'm, shundan 22 trillion so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilishi belgilangan. Kichik biznes sub'ektlariga 150 million so'mgacha garovsiz kreditlar, o'rta biznesga esa 3 milliard so'mgacha ulush kiritish imkoniyatlari taqdim etilmoqda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi qayta tashkil etilib, yangi xizmatlar joriy etilmoqda, masalan, ipoteka, ulush kiritish, portfel kafilliklar va boshqalar. Bu orqali o'rta tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishiga ko'maklashish maqsad qilingan.

Bundan tashqari, kichik biznes sub'ektlariga ijtimoiy himoya yagona reyestrda turgan ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlagan holda qo'shimcha ravishda 10 million so'mdan 100 million so'mgacha 3 yilgacha muddatga yillik 14 foiz stavkada aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kredit ajratish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, kichik biznes sub'ektlari davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy xizmatlar, konsalting, huquqiy yordam va boshqa sohalarda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kichik biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish orqali **hududiy tenglikni ta'minlashda** imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar hududlar kesimida adolatli va ehtiyojga mos taqsimlanishi kerak. Shu maqsadda elektron monitoring tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Kichik biznes vakillariga mo'ljallangan axborot-resurs markazlari tarmog'ini kengaytirish, davlat dasturlari haqida tizimli va doimiy targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Garovsiz yoki kam garovli moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish da mikromoliya tashkilotlari, biznes-inkubatorlar va davlat kafolatlari orqali moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish taklif etiladi.

Ilm-fan bilan integratsiyalashgan, texnologik yechimlarni taklif etayotgan korxonalar uchun alohida soliq yengilliklari, grantlar va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirokni qo'llab-quvvatlash zarur.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlarining bajarilishini onlayn platformalar orqali monitoring qilish, baholash va tahlil qilish tizimini ishlab chiqish kerak.

Kichik biznes uchun soliq hisobotlarini topshirish jarayonini soddalashtirish, elektron xizmatlar sifatini oshirish, soliq xatarlari bo'yicha oldindan ogohlantirish tizimini kengaytirish tavsiya etiladi.

Ushbu takliflar amaliyatga joriy etilgan taqdirda, kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yanada ortib, yangi ish o'rirlari yaratish, aholining daromadini oshirish va mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES)

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Lex.uz.

3.G'ulomov S., G'aniev S., Ortiqxo'jayev Sh. "Tadbirkorlik asoslari". – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

5.Soliev N., Qurbonov B."Hududiy iqtisodiyot va iqtisodiy-geografik ixtisoslashuv". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.

6.Xasanov A., Mamadaliyev M. "Kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilmaning o'rni". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-amaliy jurnali, 2022, №4.

7.Mahkamova D.M. "Hududiy rivojlanish strategiyalarida kichik biznesning o'rni". – Ilmiy maqola. // "Innovatsion rivojlanish" jurnali, 2021, №2.

8.Kichik biznes va Tadbirkorlik : o'quv qo'llanma\M. Boltabayev, M.

9.Raximova, D. N., & Alimbayev, M. M. (2014). O'zbekistonda kichik biznesni boshqarishning innovatsion yo'llari. Fan va texnologiya nashriyoti. ISBN 978-9943-983-11-3.

10.Ergashev, O. (2023). Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot

11.Saypullayev, I. (2023). O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda ichki va tashqi muhit. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(11-12).

12.Jo'raxonov, M. E., & Jololov, J. X. (2024). Kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash - kambag'allikni qisqartirishning muhim omili. Лучшие интеллектуальные исследования, 21(5), 124–132.